ISSN: 3060-4613

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti



№10(5)
2026

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
13.00.07 Ta'limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Elektron nashr. 98 sahifa,
26-oktyabr, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich – Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd), dotsent

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI
Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Karimova E.G. – Sotsiologiya fanlari nomzodi, dotsent
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Raxmonova Z. A. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Sayimova D. K. – texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ
Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:
Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician
Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician
Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor
Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan
Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor
Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)
Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)
Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)
Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)
Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)
Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)
Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor
Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor
Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers "Yangi O'zbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor
Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)
Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor
Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service
Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor
Rakhmonova Z.A. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)
Sayimova D. K. – Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences
Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor
Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics
Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor
Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region
Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences
Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:
Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:
• Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
• Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)
Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):
• Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
• Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA SODERJANIE CONTENTS

MUNDARIJA

Informatika darslarida algoritmik topshiriqlar orqali 5–6-sinf o‘quvchilarining mantiqiy tafakkurini rivojlantirish metodikasi 10
Muyassar Xodjiyeva Maxmudjanovna

Maktabgacha ta’limda matematikani o‘qitishda o‘yin texnologiyalaridan foydalanish 17
Samatova Xuvvaydo Rasulovna

Asliyat va fransuzcha tarjimalardagi toponimlarning struktur-grammatik modellari 22
Valijon Mamadjonov Alixanovich

“Tarbiya” darslarida raqamli hikoyalar orqali o‘quvchilarda halollik, mas’uliyat va mehr-oqibat fazilatlarini shakllantirish 26
Abdullayeva Surayyo Babojonovna

Kasbiy madaniyatshunoslik kompetensiyasini rivojlantirishda kompetensiyaviy yondashuvning imkoniyatlari 32
Komiljonova Mohinur Alllabergan qizi

Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarida kasbiy kompetentlikni takomillashtirishda modellashtirishning o‘rni 37
Mamadaliyeva Marhabo Xolmamatovna

Raqamli keyslar asosida bo‘lajak pedagoglarning ijtimoiy-pedagogik profilaktik faoliyatga tayyorgarligini takomillashtirish 43
Raximov Sardorbek Kabulovich

Teskari sinf modeli asosida amaliy mashg‘ulotlarga tayyorgarlikni tashkil etish metodikasini takomillashtirish 48
Tursunbayeva Sevinch Normurod qizi, Saidov O‘tkirjon Mallayevich

Sinfni boshqarishdagi muammolar va ularning amaliy yechimlari 53
Xidirov Baxrom Dobilovich

Loyiha texnologiyasining lingvodidaktik asoslari 60
Muhammadaziz Omonov

O‘smirlarda egoizm psixodiagnostikasi 65
Karayeva Yulduz Xushbakovna

Oliy pedagogik ta’limda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishning integrativ yondashuvga asoslangan metodikasi 69
Jo‘rayev Shuxratbek Maxamadaliyevich

Inklyuziv ta’lim sharoitida logopedik yordamni tashkil etishning tashkiliy-pedagogik mexanizmlari 73
Azimova Dilnoza Sherzodovna

Talabalarda ijtimoiy faollik ko‘nikmalarini shakllantirishning psixologik omillari 76
Baxriyeva Nargiza Axmadovna

Bolalar adabiyoti vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining axloqiy tanlov kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi 81
Duschanova Nilufar Sabirbayevna, Nurmetova Nazokat Baxtiyorovna

Nogiron farzandli onalarda psixologik farovonlikning himoya resurslari: nazariy-metodologik tahlil 86
Kasimova Xulkar Atabayevna

Intellektual rivojlanishida buzilishlari bo‘lgan o‘quvchilar bilan korreksion-logopedik ishda vizual tayanchlar va muqobil kommunikatsiyani qo‘llash modeli 90
Raximova Dildora Saidbasitovna

Дети с комплексными нарушениями развития 93
Д. Т. Гапурова

TALABALARDA IJTIMOIY FAOLLIK KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK OMILLARI

Baxriyeva Nargiza Axmadovna
Buxoro davlat pedagogika instituti Psixologiya kafedrasi dotsenti
nabaxriyeva@gmail.com

Annotatsiya: Ijtimoiy faollik shaxsning ijtimoiy muhitga faol ijobiy ta'sir o'tkazishga bo'lgan ichki ehtiyoji va tayyorgarligi sifatida qaraladi. Subyektning shaxsiy manfaatlaridan tashqari, umumiy manfaatlarni anglab etishi, inson o'zini passiv obyekt emas, balki o'z hayoti va jamiyatdagi jarayonlarni boshqara oladigan faol subyekt sifatida qabul qilishi ijtimoiy faollikning mazmunini tashkil etadi. Ushbu maqolada talabalarda ijtimoiy faollikni rivojlantirish imkonini yaratuvchi determinantlar haqida ilmiy tahlil keltirilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy faollik, determinant, individual-psixologik determinant, nazorat lokusi, ijtimoiy kompetentlik.

Abstract: Social activity is considered an individual's internal need and readiness to exert an active positive influence on the social environment. The essence of social activity consists in the subject's awareness of not only personal but also common interests, as well as in an individual's perception of themselves not as a passive object but as an active subject capable of managing their own life and processes occurring in society. This article presents a scientific analysis of the determinants that contribute to the development of social activity among students.

Key words: social activity, determinant, individual psychological determinant, locus of control, social competence.

Аннотация: Социальная активность рассматривается как внутренняя потребность и готовность личности оказывать активное положительное воздействие на социальную среду. Содержание социальной активности заключается в осознании субъектом не только личных, но и общественных интересов, а также в восприятии человеком самого себя не как пассивного объекта, а как активного субъекта, способного управлять собственной жизнью и процессами, происходящими в обществе. В данной статье представлен научный анализ детерминант, способствующих развитию социальной активности студентов.

Ключевые слова: социальная активность, детерминанта, индивидуально-психологическая детерминанта, локус контроля, социальная компетентность.

KIRISH

Bugungi kunda ijtimoiy faollik muammosi turli gumanitar fanlar vakillarining e'tiborini tortmoqda. Bunga yangi ehtiyojlar, xulq-atvor xususiyatlari, stereotiplar, tasavvurlar va g'oyalarni shakllantirayotgan axborot makonining paydo bo'lishi, axborotlarning tez tarqalishi va murakkablashuvi hamda ijtimoiy-iqtisodiy moslashuv masalalarining dolzarblashuvi sabab bo'lmoqda. Shu bilan birga, shaxs faolligini rivojlantirish masalalarini chuqurroq o'rganish zarurati yuzaga kelmoqda.

Talabalarda ijtimoiy faollikni rivojlantirish zamonaviy ta'lim tizimi va jamiyat taraqqiyotining muhim yo'nalishlaridan biridir. Talabalarning ijtimoiy faolligi nafaqat o'quv mashg'ulotlarida, balki jamiyat, ta'lim muassasasi va tengdoshlari hayotidagi muhim jarayonlarda mas'uliyat hamda tashabbuskorlik bilan ishtirok etishida ham namoyon bo'ladi.

Talabalik davrida shaxs o'z-o'zini anglash, o'z imkoniyatlarini baholash va ijtimoiy rollarini aniqlashtirish jarayonlarini boshdan kechiradi. O'z-o'zini namoyon etish orqali talaba ichki bilim va salohiyatini yuzaga chiqarishga, turli tadbirlar, seminarlar va ijtimoiy loyihalarda ishtirok etish orqali esa ijtimoiy faolligini namoyon qilishga intiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Talabalarning ijtimoiy faolligi ko‘nikmalari shaxsning shaxsiy manfaatlaridan tashqari umumiy manfaatlarni anglab etishi, o‘zini passiv obyekt emas, balki o‘z hayoti va jamiyatdagi jarayonlarga ta’sir ko‘rsata oladigan faol subyekt sifatida qabul qilishi hamda jamiyatda sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarga munosabat bildirishida namoyon bo‘ladi. Mazkur tushuncha bo‘yicha tadqiqotchilar tomonidan turli ilmiy fikr va mulohazalar bildirilgan.

Jumladan, N.B.Yuldashevaning fikricha, “Ijtimoiy faollik jamiyat siyosiy hayotida milliy manfaatlarni amalga oshirishga, ma’lum bir guruh, qatlam va milliy birlashmalar o‘rtasida umuminsoniy maqsad va qarashlar shakllanishiga xizmat qilib, ma’lum bir maqsad, qadriyat va me’yorlar asosida shaxsning ijtimoiy madaniy saviyasini shakllantiradi” [6, 955-b].

A.A.Kratko ijtimoiy faollikni shaxsning tizimli ijtimoiy sifati sifatida izohlaydi. Uning fikricha, ushbu sifat shaxsning mazmundorligi va jamiyat bilan aloqalarining to‘laqonliligida ifodalanadi hamda amalga oshadi [4].

S.L.Komarova esa ijtimoiy faollikni tizimli ta’lim sifatida talqin qilib, uni jamiyatda munosib yashash va jamiyat taraqqiyotida ishtirok etish uchun mavjud potensial imkoniyatlarni o‘zlashtirish intensivligining namoyon bo‘lishi bilan tavsiflaydi [5].

A.V.Mudrikning qarashlariga ko‘ra, shaxsning ijtimoiy faolligi uning jamiyatda o‘zini to‘liq va samarali namoyon etishiga, jamiyat bilan o‘zaro aloqada bo‘lishiga imkon beradigan bilim, ko‘nikma va shaxsiy malakalar tizimining shakllanishida namoyon bo‘ladi [2].

Keltirilgan ilmiy qarashlar ijtimoiy faollikning ko‘p qirrali xususiyatga ega ekanini ko‘rsatadi. Mazkur yondashuvlarni umumlashtirgan holda, shaxsning ijtimoiy faolligini jamiyat manfaatlarini anglash, ijtimoiy munosabatlarda faol ishtirok etish va jamiyat taraqqiyotiga hissa qo‘shish imkoniyatlarini amalga oshirish bilan bog‘liq sifatlar majmui sifatida talqin qilish mumkin.

Ijtimoiy faollikni tushuntirishda motivatsion-ehtiyojlar sohasi ham muhim o‘rin tutadi. D. Makklellandning ehtiyojlar nazariyasida muvaffaqiyatga erishish, boshqalarga ta’sir ko‘rsatish va daxldorlikka bo‘lgan ehtiyojlar ajratib ko‘rsatiladi. Ushbu yondashuv talabalarning ijtimoiy faolligini tahlil qilishda ularning muvaffaqiyatga intilishi, guruhga mansublik hissi va tashabbus ko‘rsatishga tayyorligini tushunishga yordam beradi.

Shuningdek, shaxsning o‘zini anglash, o‘z faoliyatini tahlil qilish va natijalariga baho berish qobiliyati ijtimoiy faollik bilan bog‘liq muhim psixologik jihatlardan biridir. Talabaning o‘z imkoniyatlarini anglashi, xatolarini rivojlanish imkoniyati sifatida qabul qilishi va o‘z faoliyatini takomillashtirishga intilishi uning ijtimoiy hamda kasbiy rivojlanishi uchun ahamiyatli hisoblanadi.

Tahlil qilingan qarashlar ijtimoiy faollikni faqat tashqi xatti-harakatlar bilan cheklab bo‘lmasligini ko‘rsatadi. Uni shakllantirishda ichki motivlar, bilim va dunyoqarash, qadriyatlar, emotsional holat, o‘ziga ishonch, refleksiya va ijtimoiy muhitning o‘zaro ta’sirini hisobga olish lozim.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Insonning ijtimoiy rivojlanishi va jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti insonlarning ijtimoiy mohiyatini shakllantiradigan o‘zaro bog‘liq jarayonlardir. Insonning mehnat, ijtimoiy muhit va o‘z-o‘zini tarbiyalash bilan o‘zaro aloqada rivojlanadigan faol mavjudot ekanligi haqidagi fundamental g‘oyalar talabalarda ijtimoiy faollik ko‘nikmalarini rivojlantirish muammosining muhim metodologik asosini tashkil etadi.

Tahlil jarayonida motivatsion-ehtiyojlar sohasi, kognitiv omillar, qadriyatlar tizimi, o‘z-o‘zini anglash va refleksiya, emotsional xususiyatlar, nazorat lokusi, ijtimoiy kompetentlik, shaxsiy samaradorlik, kasbiy motivatsiya hamda ijtimoiy muhit va pedagogik sharoitlar asosiy tahlil birliklari sifatida qaraladi.

Nazariy materiallar tahlili talabalarda ijtimoiy faollikni shakllantirish ko‘p omilli jarayon ekanini ko‘rsatadi. Ijtimoiy faollik talabaning faqat tashqi xatti-harakatlari bilan emas, balki uning ichki ehtiyojlari, motivlari, qadriyatlari, o‘ziga bo‘lgan munosabati, hissiy barqarorligi va ijtimoiy muhit bilan o‘zaro aloqasi orqali ham tavsiflanadi.

Talabalarda ijtimoiy faollikni rivojlantirishga ta’sir ko‘rsatuvchi psixologik omillarni quyidagi guruhlarga ajratish mumkin.

№	Psixologik omillar	Ularning mazmuni
1	**Motivatsion-ehtiyojlar sohasi**	Talabaning muvaffaqiyatga erishish va jamiyat tomonidan e’tirof etilish istagi
2	**Kognitiv omillar**	Bilim, dunyoqarash, ijtimoiy intellekt va tanqidiy fikrlashning rivojlanganligi
3	**Qadriyatlar tizimi**	Ijtimoiy qadriyatlar, axloqiy me’yorlar va jamiyat manfaatlarini anglash
4	**O‘z-o‘zini anglash va refleksiya**	O‘z imkoniyatlari, qobiliyatlari va faoliyati natijalarini tahlil qilish
5	**Emotsional omillar**	O‘zini hurmat qilish, o‘ziga ishonch va hissiy barqarorlik
6	**Nazorat lokusi**	O‘z hayotidagi voqealar va natijalarga ta’sir ko‘rsata olishiga ishonish

7	**Ijtimoiy kompetentlik**	Boshqalar bilan samarali munosabat o‘rnatish va ijtimoiy vaziyatlarni tushunish qobiliyati
8	**Shaxsiy samaradorlik**	O‘z imkoniyatlari va qobiliyatlaridan maqsadli foydalanish
9	**Kasbiy motivatsiya**	Tanlangan kasbga ijobiy munosabat va etuk mutaxassis bo‘lishga intilish
10	**Ijtimoiy muhit va pedagogik sharoitlar**	Sog‘lom psixologik muhit, tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash va qulay ta’lim sharoitlari

Motivatsion-ehtiyojlar sohasi

Talabaning motivatsion-ehtiyojlar sohasi uning ijtimoiy faolligini yuzaga chiqaruvchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Talabaning jamiyat tomonidan e’tirof etilishga intilishi o‘qishdagi natijalarini yaxshilash, ommaviy-madaniy va ma’rifiy tadbirlarda ishtirok etish, respublika va xalqaro miqyosdagi tanlovlar, olimpiadalar hamda festivallarda o‘z imkoniyatlarini sinab ko‘rishida namoyon bo‘lishi mumkin.

D. Makklellandning ehtiyojlar nazariyasiga ko‘ra, muvaffaqiyatga erishish, boshqalarga ta’sir ko‘rsatish va daxldorlikka bo‘lgan ehtiyojlar shaxs faoliyatining motivatsion asoslarini tashkil etadi. Ushbu nuqtayi nazardan, muvaffaqiyatga intiluvchi talaba o‘zining kuchli jihatlarini rivojlantirishga va belgilangan maqsadlarga erishishga harakat qiladi.

Aksincha, muvaffaqiyatsizlikdan qochish istagi ustun bo‘lgan talaba o‘zining kuchsiz tomonlarini namoyon etmaslikka intilishi mumkin. Bunday holat yangi faoliyat turlarida ishtirok etish va tashabbus ko‘rsatishni cheklashi ehtimoli mavjud. Shu sababli ta’lim jarayonida talabaning faqat natijasini emas, balki harakatini, tashabbusini va rivojlanishga intilishini ham qo‘llab-quvvatlash muhimdir.

Kognitiv omillar va refleksiyaning o‘rni

Kognitiv omillar talabaning o‘z xatti-harakatlari va xulq-atvorini ijtimoiy ahamiyat nuqtayi nazaridan tahlil qilish qobiliyatini qamrab oladi. Bunda bilim va dunyoqarash darajasi, ijtimoiy intellekt hamda tevarak-atrofdagi voqelikni tanqidiy baholash qobiliyati muhim ahamiyatga ega.

Ijtimoiy munosabatlarda talaba boshqa insonlarning holati va nuqtayi nazarini anglash, vaziyatga mos baho berish hamda tegishli qaror qabul qilishga ehtiyoj sezadi. Shu jihatdan, ijtimoiy intellekt va refleksiya shaxslararo munosabatlarni tashkil etish, guruh faoliyatida ishtirok etish va kelajakdagi kasbiy faoliyatga tayyorlanishda muhim o‘rin tutadi.

O‘z-o‘zini anglash va introspeksiya talabaning o‘z imkoniyatlarini aniqlashiga, faoliyatidagi kamchiliklarni tahlil qilishiga va rivojlanish yo‘nalishlarini belgilashiga yordam beradi. Talaba o‘z xatolarini faqat salbiy natija sifatida emas, balki kelgusidagi faoliyatini takomillashtirish imkoniyati sifatida qabul qilsa, o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun ko‘proq imkoniyatga ega bo‘lishi mumkin.

Qadriyatlar va ijtimoiy mas’uliyat

Talabalarda ijtimoiy faollikni rivojlantirishda ijtimoiy qadriyatlar, axloqiy me’yorlar va jamiyat manfaatlarini anglash ham muhimdir. Faol fuqarolik pozitsiyasiga ega shaxs ijtimoiy muammolarga befarq bo‘lmaslikka, mavjud vaziyatni yaxshilashga intilishga va jamiyat hayotida mas’uliyat bilan ishtirok etishga moyil bo‘ladi.

Talabalarda ijtimoiy mas’uliyat hissining rivojlanishi ularning o‘quv faoliyati, jamoat ishlari va ijtimoiy tashabbuslarda ishtirok etishiga ma’naviy asos yaratadi. Shu bilan birga, ijtimoiy faollikni faqat tashqi e’tirof yoki shaxsiy mavqega erishish bilan bog‘lash etarli emas. Uning mazmunida jamiyat uchun foydali faoliyatni anglash va umumiy maqsadlarga hissa qo‘shish ham mujassam bo‘lishi lozim.

“Bizni hamisha o‘ylantirib keladigan muhim bir masala - bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so‘z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog’liq. Bugun zamon shiddat bilan o‘zgaryapti. Bu o‘zgarishlarni hammadan ham ko‘proq his etadigan kim - yoshlar. Mayli, yoshlar o‘z davrining talablari bilan uyg’un bo‘lsin. Lekin ayni paytda o‘zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug’ zotlarning avlodimiz, degan da’vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o‘zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan”, - Sh.Mirziyoyevning yoshlar tarbiyasi va dunyoqarashiga doir fikrlari ham yosh avlodda ma’naviy qadriyatlarni shakllantirish masalasining dolzarbligini ko‘rsatadi [1].

Emotsional omillar va o‘ziga ishonch

Talabaning tashqi faolligi ko‘p jihatdan ichki psixologik holatiga, voqea-hodisalarni qanday baholashiga va ularga munosabat bildirishiga bog‘liq. Ijtimoiy faoliyatni amalga oshirishda talabaning ushbu faoliyatning o‘zi va jamiyat uchun ahamiyatini anglab etishi muhimdir.

O‘zini-o‘zi hurmat qilish va o‘ziga ishonch talabaning o‘z imkoniyatlarini namoyon etishiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. O‘z kuchiga ishongan talaba o‘zidagi kamchiliklarni tan olishdan yoki xato qilishdan ortiqcha

qo‘rqmasdan, belgilangan maqsad sari intilishi ehtimoli yuqori. Aksincha, o‘zini past baholash va xatolardan kuchli xavotirlanish uning ijtimoiy tashabbuslarini cheklashi mumkin.

Emotsional barqarorlik ham ijtimoiy faollik bilan bog‘liq omillardan biridir. Hissiy jihatdan barqaror talaba boshqalarning fikrini vazminroq qabul qilishi va qiyin vaziyatlarda faoliyatini davom ettirishi mumkin. Emotsional beqarorlik esa ayrim hollarda xavotirning ortishiga va ijtimoiy vaziyatlardan chetlashishga olib kelishi mumkin. Biroq bu munosabatlarni har bir talaba uchun bir xil deb qabul qilmaslik, individual farqlarni ham hisobga olish lozim.

Nazorat lokusi, ijtimoiy kompetentlik va shaxsiy samaradorlik

Talabalarda ijtimoiy faollikni rivojlantiruvchi muhim omillardan yana biri nazorat lokusidir. Nazorat lokusi shaxsning hayotida yuz beradigan voqealar va ularning natijalariga qay darajada ta’sir ko‘rsata olishiga oid e’tiqodlari bilan bog‘liq tushunchadir [3].

Talaba o‘z faoliyatining natijalari ko‘p jihatdan o‘z qarorlari, sa’y-harakatlari va mas’uliyatiga ham bog‘liqligini anglaganda, tashabbus ko‘rsatish va belgilangan vazifalarni bajarishga intilishi mumkin. Bunda tashqi sharoitlarning ham ahamiyati borligini e’tibordan chetda qoldirmaslik lozim.

Ijtimoiy kompetentlik talabaning boshqa insonlar bilan samarali munosabat o‘rnatishi, ijtimoiy vaziyatlarni tushunishi va hamkorlik qilishi bilan tavsiflanadi. Shaxsiy samaradorlik esa mavjud imkoniyat va qobiliyatlardan maqsadli foydalanish bilan bog‘liq.

Talabalarning shaxslararo kommunikatsiyasini rivojlantirish, ijtimoiy tajribasini kengaytirish va turli jamoaviy faoliyatlarda qatnashishiga sharoit yaratish ushbu sifatlarning namoyon bo‘lishiga ko‘maklashishi mumkin. Tashqi sharoitlar talabaning ichki motivlari, e’tiqodlari va individual xususiyatlari bilan o‘zaro ta’sirga kirishganida ijtimoiy faollikning yuzaga chiqishi uchun qulay zamin shakllanadi.

Kasbiy motivatsiya va ijtimoiy muhit

Talabaning tanlagan kasbiga nisbatan ijobiy munosabati ham ijtimoiy faollikning muhim motivlaridan biridir. Oliy ta’limda o‘qish davrida talaba o‘z kasbining etuk mutaxassisi bo‘lish va jamiyatda munosib o‘rin egallashga intiladi. Shu maqsadda u ilmiy to‘garaklar, loyihalar, tanlovlar va jamoat ishlarida ishtirok etishi mumkin. Bunday faoliyatlar talabaga o‘z bilim va qobiliyatlarini sinab ko‘rish, jamoada ishlash tajribasini oshirish hamda kasbiy istiqbolini aniqlashtirish imkonini, o‘z faoliyati natijalarini muntazam tahlil qilish esa maqsadlarini qayta ko‘rib chiqish va o‘z ustida ishlashga imkonini beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Talabaning ijtimoiy faolligi faqat individual psixologik xususiyatlar bilan belgilanmaydi. Ta’lim muassasasidagi psixologik muhit, pedagoglarning munosabati, tengdoshlar ko‘magi va tashabbuslarni amalga oshirish imkoniyatlari ham muhim. Sog‘lom psixologik muhit hamda qulay pedagogik sharoitlar talabalarning ijtimoiy faoliyatda ishtirok etishi uchun zamin yaratadi.

Talabalarda ijtimoiy faollik ko‘nikmalarini shakllantirishga doir nazariy qarashlar ushbu hodisaning murakkab va ko‘p komponentli xususiyatga ega ekanini ko‘rsatadi. N.B.Yuldasheva, A.A.Kratko, S.L.Komarova va A.V.Mudrik qarashlarida ijtimoiy faollik shaxsning jamiyat bilan munosabatlari, ijtimoiy imkoniyatlardan foydalanishi va ijtimoiy hayotda ishtirok etishi bilan bog‘lanadi [2; 4; 5; 6]. Mazkur yondashuvlarni umumlashtirish ijtimoiy faollikni faqat tashqi harakatlar yig‘indisi sifatida emas, balki shaxsning ichki xususiyatlari va ijtimoiy munosabatlari bilan bog‘liq jarayon sifatida ko‘rib chiqish imkonini beradi.

Kognitiv rivojlanish, qadriyatlar, refleksiya, emotsional barqarorlik, nazorat lokusi, ijtimoiy kompetentlik va kasbiy motivatsiya o‘zaro bir-biriga bog‘liq omillar sifatida qaraladi. Masalan, talabaning tashabbus ko‘rsatish istagi uning o‘ziga bo‘lgan ishonchi va faoliyat natijasiga ta’sir ko‘rsata olishiga bo‘lgan ishonchi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Biroq tashabbusning real faoliyatga aylanishi uchun ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va tegishli imkoniyatlar ham talab etiladi. Shu nuqtai nazardan, talabalarda ijtimoiy faollikni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik faoliyat bir vaqtning o‘zida shaxsiy va ijtimoiy omillarni hisobga olishi maqsadga muvofiq. Jumladan, jamoaviy loyihalar, talabalar tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash, ilmiy to‘garaklar, ijtimoiy tadbirlar, hamkorlikka asoslangan topshiriqlar va refleksiv mashg‘ulotlar talabalar ijtimoiy faolligini rivojlantirishga sabab bo‘ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Talabalarda ijtimoiy faollik ko‘nikmalarini shakllantirish shaxsning psixologik rivojlanishi, ijtimoiy muhitga moslashuvi va jamiyat hayotida ishtirok etishi bilan bog‘liq murakkab jarayondir. Ijtimoiy faollikni faqat tashqi xatti-harakatlar orqali emas, balki shaxsning motivatsion, kognitiv, qadriyatga oid, emotsional va ijtimoiy xususiyatlari bilan birgalikda o‘rganish zarur.

Ijtimoiy faollik talabaning jamiyat manfaatlarini anglashida, tashabbus ko‘rsatishida, mas’uliyat bilan harakat qilishida va ijtimoiy munosabatlarda ishtirok etishida namoyon bo‘ladi. Bilim, tanqidiy fikrlash, ijtimoiy intellekt va o‘z faoliyatini tahlil qilish talabaning ijtimoiy vaziyatlarda ongli qarorlar qabul qilishiga zamin yaratadi.

Talabalarda ijtimoiy faollik ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlar shaxsning individual-psixologik xususiyatlari va ta’lim muassasasidagi ijtimoiy-pedagogik sharoitlarni uyg‘un tarzda hisobga olishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. -T.: O‘zbekiston, 2016. -B.486.
2. Виноградова М.А., Копылова А.В., Федотова Ю.А. Современные подростки и ценности социальной активности. Воспитательная работа в школе 1/15. https://narodnoe.org›downloads›states
3. Ионова Н.Ю. Влияние локуса контроля на нашу жизнь // центр общественного здоровья и медицинской профилактики. https://profilaktika.tomsk.ru/naseleniyu/stati/psikhologiya/vliyanie-lokusa-kontrolya-na-nashu-zhizn/#
4. Кратко А.А. Социология. Харьков: Изд-во “Константа”, 1996. - 192 с.
5. Комарова С.Л. Оптимизация отношений субъектов политической деятельности: автореф. дис. … канд. психол. наук [Оптимизатион оф Субжестс Relations of Political Activity. Cand. psychol. sci. diss. abstr]. Mockow, 2002, 29 p. (In Russian).
6. Yuldasheva N.B. Yangi O‘zbekistonda yoshlar ijtimoiy faolligini yuksaltirish masalalariga doir. Международный научный журнал №2 (100), част 1. “Научный Фокус”, июн, 2023. - Б.954-957.
7. https://4brain.ru/blog/teoriya-motivatsii-makklellanda/

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi
13.00.02 Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi (ta’lim sohalari va bosqichlari bo‘yicha)
13.00.07 Ta’limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov
Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov
Musahhih: Alibek Zokirov
Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №10(5)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№C–5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.